**18-mavzu: [u] tovushi. Uu harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar**

**Dars maqsadi**:

- [u] tovushining talaffuzi va Uu harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so’zlardan [u] tovushining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so‘zlar:** bo`g`inlar jadvali, [u] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar**,** rasmli kartochkalar , kesma harflar, “Ur to‘qmoq” ertagi.

## Darsning borishi:

### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.

Harflarni qo`shib o`qiymiz mashqi: O‘qituvchi doskaga birinchi ustunga a,i,o harflarini ikkinchi ustunga esa n, m, l harflarini yozadi. O1quvchilardan istalgan harflarni qo`shin bo`g`in hosil qilib o`qishni so`raydi.

- *Bugun siz bilan ‘Bo`g`in hosil qilib o`qiymiz”mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi ikki ustundagi harflarni bir biriga qo`shib bo`g`in tuzing.*

## Asosiy qism (40 daqiqa)

**1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)**

O`qituvchi kesma harflar yordamida barcha o`tgangan harflari bilan 3 harfli 5 ta so`z hosil qilishni so`raydi.

*Kesma harflaringiz yoramida o`rgangan harflarimiz bilan so`zlar tuzing. Tuzgan so`zlaringizni partadoshingizga o`qib bering.*

**Amaliy topshiriqni muhokama qilish:**

- *Qanday so`zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so`zlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan so`zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so`zlar orasida yo`q?*

**2.Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)**

**Harflar tasmasidan o’tilgan harflar esga olinadi.**

O`qituvchi [u] tovushini so`zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini , undosh tovushlar talaffuzda to`siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko`k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so`zni o`quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

uzum (rasmi)- bo`g`inga bo`linadi 2 bo`g`in, 1- bo`g`inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 1 ta tovush. 2- bo`g`inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. uu harfi bu so`zda 1- va 3- katakda ekanligini aniqlab shu kataklarni bo`yaydi.




**Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)**

1. Darslikda berilgan rasm asosida so`z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

*"Moslashtiring" mashqi bajariladi. Rasmni ifodalovchi so'zlar ularga tegishli chizma bilan bog'lanadi.*
*(Uy, uzum, uloqcha)*

*2.Berilgan so`z va gaplarni o`qing.*

*3. Rasmlarning birinchi harfidan so'zlar yasang.(mushuk, bulut,buloq)*

*4."Ur, to'qmoq"ertagidan parcha eshittiriladi. Ertak davomi o'quvchilardan so'raladi.*

**Daftar bilan ishlash: (5 daqiqa)**

*1. U tovushini o'rnini topib bo'yang.*



*2. Rasmlarni ifodalovchi qaysi qushning nomida [u] tovushi ishtirok etganini aniqlab belgilang.*

*3.Bo`g`inlar jadvalini tuzing.*




**Darsga yakun yasash:**

*-Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

*-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

*-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?*

*-Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?*

НЕ ДЛЯ ПЕЧАТИ